



ADABIYOT DARSLARIDA MATN TAHLILI ORQALI MILLIY O'ZLIKNI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19650400>

Turakulova Okila Amirkulovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

o'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrası

dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

turakulovaoqila@gmail.com

909187528

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyot darslarida matn tahlili jarayonining o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Badiiy asarlarni chuqur tahlil qilish, qahramonlar dunyoqarashi, milliy qadriyatlar, tarixiy jarayonlar va ma'naviy merosni o'quvchi ongiga singdirishda samarali metodlar ko'rib chiqiladi. Matn bilan ishlashning innovatsion yondashuvlari, interfaol usullar va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari adabiyot darslarida matn tahlilini to'g'ri tashkil etish milliy identitetni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *adabiyot darsi, matn tahlili, milliy o'zlik, milliy qadriyatlar, badiiy asar, ma'naviy meros, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, talqin va tahlil*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль анализа текста на уроках литературы в формировании и осознании национальной идентичности у учащихся. Обсуждаются эффективные методы глубокого анализа художественных произведений, способствующие усвоению учащимися мировоззрения героев, национальных ценностей, исторических процессов и духовного наследия. Анализируются инновационные подходы к работе с текстом, интерактивные методы и опыт, основанный на компетентностном подходе. Результаты исследования показывают, что правильная организация анализа текста на уроках литературы положительно влияет на развитие национальной идентичности.*

Ключевые слова: *урок литературы, анализ текста, национальная идентичность, национальные ценности, художественное произведение, духовное наследие, компетентностный подход, интерактивные методы, интерпретация и анализ.*



Adabiyot-bu inson ruhining, xalq ma'naviyatining davr zamonasining so'z orqali ifodalangan aksidir. Har bir millat o'zligini anglashda, tarixni unutmashlikda, ma'naviy ustunlikka erishishda adabiyotga tayanadi. Adabiyot nafaqat san'at, balki xalq tafakkuri, g'ururi va tarixiy xotirasidir. Ayniqsa, milliy o'zlik tushunchasi bugungi globallashtirish davrida o'z ahamiyatini yanada oshirmoqda. Adabiyot - ana shu o'zlikni saqlab qoluvchi, uni avloddan avlodga yetkazuvchi ko'zgidir. Adabiyot xalq tafakkurining mahsuli. Sifatida milliy ruhni aks ettiradi. Bizga saboq beradi biz uchun eng yaxshi muallim.

Globallashtirish sharoitida jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida kechayotgan o'zgarishlar milliy o'zlikni anglash, o'zligini yo'qotmaslik, madaniy identifikatsiya va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonini ta'lim-tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, talabalik davri – shaxsiy va ijtimoiy ong shakllanadigan muhim bosqich sifatida – milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini mustahkamlash uchun qulay ijtimoiy-pedagogik makon hisoblanadi. Shu boisdan, oliy ta'lim tizimida madaniy merosning tarbiyaviy, estetik va identitet shakllantiruvchi funksiyalarini chuqur o'rganish va uni ta'limiy faoliyatga integratsiyalash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda turli fan doirasida hamda tayanch kompetensiyalar ustida juda ko'plab izlanishlar qilingan hamda tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo adabiyot faniga oid badiiy asarni tahlil

qilish kompetensiyasi alohida kompetensiya turi sifatida bu bosqich ilmiy tadqiqot ishida deyarli o'rganilmagan.

Badiiy asar tahlili o'quvchining hissiy-intellektual rivojlanishiga xizmat qilib, unda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Asar qahramonlari bilan bog'lanish, ularning ichki kechinmalari va harakat motivlarini anglash, hissiyotlarini tushunish, voqealar rivojini chuqur his etish orqali inson nafaqat jismonan, balki ma'naviy jihatdan ham yuksalishga intiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, badiiy asar tahlili o'quvchini nafaqat ilmiy, balki estetik va axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydigan muhim pedagogik jarayon bo'lib xizmat qiladi. Tahlil jarayoni o'quvchilarga bir qator nazariy va amaliy foydalar beradi. Avvalo, bu ularda badiiy asarni teran anglash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash layoqatini o'stiradi. Shu bilan birga, badiiy asarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning badiiy estetik didi shakllanadi, adabiy tafakkuri boyiydi va ularda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi tarkib topadi. Badiiy asarlarni to'g'ri tahlil qilish orqali o'quvchilarda shaxslik sifatlarini shakllantirish didaktik tahlildan ko'zlangan asosiy maqsad hisoblanadi. Badiiy asarning jozibasiz, siri, o'ziga xosligi, ta'sir ko'rsata olish sabablarini aniqlash orqali o'quvchilarda estetik did, toza va uyg'oq qalb kabi insoniy sifatlarni shakllantirish hamda nutqiy



ko'nikmalarini rivojlantirish esa uning vazifasi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyot darslarida matn tahlili orqali milliy o'zlikni rivojlantirish uchun matnni milliy qadriyatlar, an'analar va tarix bilan bog'lash, milliy g'oyalarni yorituvchi asarlarni chuqur o'rganish, shuningdek, talabalar orasida milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga qaratilgan ijodiy va interfaol mashg'ulotlardan foydalanish zarur. Matn tahlili orqali milliy o'zlikni rivojlantirish usullari:

- Milliy qadriyatlar va an'analarni o'rganish: Matnni o'rganishda milliy urf-odatlar, an'analar, hikmatli so'zlar va tushunchalar yoritilgan qismlariga alohida e'tibor qaratish.

- Milliy g'oyalarni tahlil qilish: Yozuvchining shaxsiy hayoti, asarlari va milliy g'oyalar o'rtasidagi aloqani tahlil qilish. Masalan, "Qutadg'u Bilig" kabi mumtoz adabiyot namunalari orqali milliy qadriyatlarni o'rganish.

- Ijodiy mashg'ulotlar: Matnni o'rganishda talabalar ijodiy ishlarida qatnashishlari kerak. Bunga matnni o'rganib, o'z fikrlarini, mulohazalarini ifodalovchi insholar yozish, sahna ko'rinishlari tayyorlash, rasm chizish kabi ishlar kiradi.

- Milliy o'ziga xoslikni rivojlantirish: Har bir talabaning milliy o'ziga xosligini rivojlantirish uchun ularning fikrlarini hurmat qilish va rag'batlantirish kerak.

- Interfaol usullardan foydalanish: Darslarni interfaol o'tish, talabalar

orasida savol-javob, bahs-munozaralar tashkil etish, guruhlarda ishlash kabi usullardan foydalanish milliy o'zlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Bu usullar orqali adabiyot darslari talabalarning milliy o'zlikni shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo'shadi. Adabiyot darslarida matn tahlili o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar asardagi voqealar, obrazlar, milliy urf-odatlar, xalqona til, tarixi va ma'naviy qadriyatlar bilan bevosita tanishadilar. Bu jarayon ularda:

- milliy tafakkurni rivojlantiradi,
- o'z xalqining ruhiyati va turmush tarzini tushunishga yordam beradi,
- milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytiradi,
- o'zligini anglash, kimligiga nisbatan faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Matn tahlili orqali o'quvchilar faqat adabiy bilim emas, balki millat tarixiga ishora qiluvchi ramzlar, obrazlar va g'oyalarni ham chuqurroq anglaydi. Badiiy asarlar milliy ong va ma'naviyatni tarbiyalovchi ko'zgudek xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida matn tahlili milliy o'zlikni shakllantirishda muhim didaktik vosita bo'lib, u o'quvchilarda milliy qadriyatlarning mazmunini anglash, o'z xalqining madaniy merosiga mehr va hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:



1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik, 2-kitob. – Toshkent: “Innovatsion - Ziyo”, – 2022. 392 b.
2. Matchonov S “Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg‘unligi”. Til va adabiyot ta’limi. – 2020. 7-son 8-bet.
3. Niyazmetova R. Adabiy matni savol va topshiriqlar yordamida o‘rganish. // Kasb-hunar ta’limi. 2005. 6-son, 16-17 b.
4. Quronov D. Adabiy asar talqini estetik tamoyil sifatida.// “O‘zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari” mavzusidagi konferensiya materiallari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014
5. Ниёзметова Р. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2007. – 216 б.